

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Baxromova Nilufar Xoshimovna

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Uzluksiz ta'lif boshqarmasi xodimi.

nilufabakhromova89@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13371710>

Annotatsiya. Maqolada professional ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatidagi natijalari, malakali yurist kadrlarni tayyorlashga qaratilayotgan e'tibor hamda ta'lif sifati va samaradorligini yanada oshirish tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qo'shma ta'lif, ta'lifning kredit-modul tizimi, stipendiya, tanishtiruv amaliyoti, malakaviy amaliyot, test, tanlov.

REFORMS IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM

Abstract. The article analyzes the results of the reforms implemented in the field of professional education in the activity of legal technical schools of the Ministry of Justice, the attention paid to the training of qualified legal personnel, and the further improvement of the quality and efficiency of education.

Key words: Joint education, credit-module system of education, scholarship, introduction practice, qualification practice, test, competition.

РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируются результаты реформ, реализованных в сфере профессионального образования в юридических техникумах Министерства юстиции, внимание, уделяемое подготовке квалифицированных юридических кадров, дальнейшему повышению качества и эффективности образования.

Ключевые слова: Совместное обучение, кредитно-модульная система обучения, стипендия, вводная практика, квалификационная практика, зачет, конкурс.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida professional ta'lif tizimidagi o'quv-uslubiy jarayonlarining sifat va samaradorligini oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydag'i PF-81-soni "Oliy ta'lif tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi va professional ta'lif tizimidagi qator vazifalar belgilab berildi.

Unga ko'ra, 2024/2025 o'quv yilidan boshlab davlat oliy va professional ta'lif muassasalariga (kasb-hunar maktabi bundan mustasno) qabul qilish bo'yicha imtihonlar "avval test, so'ng tanlov" tamoyiliga muvofiq bir vaqtda o'tkazilishi belgilandi. Endi abituriyentlar o'z tanloviga ko'ra test sinovi natijasida to'plagan balidan kelib chiqib, dastlab oliy ta'lifning bakalavriat ta'lif yo'nalishlariga, so'ng professional ta'lif muassasalariga o'qishga kirish uchun tanlovda ishtiroy etadi.

Barcha davlat kollej va texnikumlariga “avval test, so‘ng tanlov” tamoyiliga muvofiq qabul qilishda abituriyentlar kollej va (yoki) texnikumni, kasb va mutaxassislikni hamda ta’lim shaklini oliv ta’lim muassasalariga qabulning yakuniy natijasi e’lon qilinganidan so‘ng 10 kun muddatda tanlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib joriy o‘quv yildan boshlab yurisprudentsiya ta’lim yo‘nalish bo‘yicha oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga topshirib, kira olmagan abituriyentlar Bilim va malakalarni baholash agentligining my.uzbmb.uz sayti orqali shaxsiy kabinetiga kirib, xohishiga ko‘ra Adliya vazirligi yuridik texnikumlarini tanlashi mumkin.

Yuridik texnikumlarda o‘quv jarayonida kredit-modul tizimi Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa modeli (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS)ga muvofiq tashkil qilinadi.

Ta’limning kredit-modul tizimi – ta’lim oluvchiga yo‘naltirilgan, ta’lim olish, ta’lim berish va ta’lim oluvchilar bilimini baholash jarayonlarining shaffofligi tamoyili asosida kreditlarni yig‘ish va o‘tkazishdan iborat tizim.

Qo‘shma ta’lim – (ikki diplomli) dasturi – O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida imzolangan shartnomaga muvofiq kadrlar tayyorlashni va bitiruvchilariga oliy ma’lumot olganligi to‘g‘risidagi barcha xorijiy hamkor oliy ta’lim muassasalari joylashgan davlatlarda tan olinadigan kvalifikatsiya (diplom) berilishini nazarda tutuvchi ta’lim dasturi.

Stipendiya – odatda o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari o‘quvchilariga, shuningdek aspirantlar va doktorantlarga o‘qish uchun haq to‘lash va ba’zan oylik nafaqa berish orqali ko‘rsatiladigan muntazam moliyaviy yordam sanaladi.

Tanishtiruv amaliyoti – yuridik texnikumlarning birinchi kurs o‘quvchilarini tomonidan kelajakdag‘i kasbiy faoliyat haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni olish va egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash, tanlangan mutaxassislik bo‘yicha amaliy kasb layoqati va ko‘nikmalarini egallash maqsadida o‘taladigan amaliyot turi.

Malakaviy amaliyot – yuridik texnikumlarni bitiruvchi kurs o‘quvchilarini o‘qitishning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi va ularning boshlang‘ich kasb tajribasiga hamda malakaga ega bo‘lishi, o‘quvchilarning mustaqil ravishdagi mehnat faoliyatiga kasb bo‘yicha tayyorligini tekshirish, maxsus fanlarni o‘rganishda olingan bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish, tizimlashtirish maqsadida o‘tkaziladigan amaliyot turi.

Xozirgi kunda respublikamizning 14 ta hududida Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyat olib bormoqda va har yili texnikumlarga qabul jarayonlari amalga oshiriladi.

Savol tug‘ilishi mumkin yuridik texnikumlarda o‘qishning qanday afzalliliklari bor deb, javob esa oddiy:

birinchidan yuridik texnikumlarda kunduzgi, sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qish imkoniyati mavjud bo‘lib, o‘quvchilar davlat granti hamda to‘lov-kontrakt, shu jumladan tabaqlashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishlari mumkin;

ikkinchidan yuridik texnikumlarga o‘quv-metodik jihatdan ko‘mak berish Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan amalga oshiriladi;

uchinchidan yuridik texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 705-sun qaroriga muvofiq Toshkent davlat yuridik

universiteti va “yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi mavjud beshta oliv ta’lim muassasalariga, shuningdek, 17-son qaroriga muvofiq TDYU dan tashqari “yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi mavjud barcha oliv ta’lim muassasalariga test sinovlarisiz, suhbat asosida 2-kursdan o‘qishga qabul qilinadi;

to‘rtinchidan yuridik texnikumlarda o‘qitish ta’limning kredit-modul tizimi bo‘yicha olib boriladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarga mutaxassislik fanlarini chuqur tahlil qilgan holda o‘rganish imkonini beradi;

beshinchidan yuridik texnikumlar bitiruvchilari o‘qishni tamomlaganlaridan so‘ng o‘rta maxsus yuridik ma’lumotga ega bo‘lishadi va notarius yordamchisi, FHDY bo‘limi inspektori, davlat xizmatlari markazi mutaxassislari, advokat yordamchisi hamda davlat ijrochisi va shu kabi boshqa lavozimlarda ishlashlari mumkin bo‘ladi;

oltinchidan xalqaro darajadagi yuristlarni tayyorlash maqsadida yuridik texnikumlarda qo‘shma ta’lim dasturlari amalga oshirib borilmoqda;

yettinchidan yuridik texnikumlarda dars mashg‘ulotlari mahalliy hamda xorijiy malakali professor-o‘qituvchilar, amaliyotchi va tajribali mutaxassislar tomonidan olib boriladi;

sakkizinchidan yuridik texnikumlarning yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarga ega o‘quvchilariga Adliya vazirligi stipendiyalari va grantlari ajratiladi;

to‘qqizinchidan yuridik texnikumlarda ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar orqali boshqarish imkoniyatini beruvchi “Elektron yuridik texnikum” innovatsion elektron platformasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan;

o‘ninchidan yuridik texnikumda tahsil olayotgan o‘quvchilarning nazariy olgan bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash mexanizmi yaratilgan. Unga ko‘ra 2 yil o‘qish davomida tanishtiruv hamda malakaviy amaliyot olib boriladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda mamlakatimizda 400 000 dan ziyod xo‘jalik yurutuvchi subyektlar, advokatura va davlat tashkilotlarida yuridik profilga ega bo‘lgan mutaxassisliklar mavjud.

Aynan mana shunday sohalarda o‘rta maxsus ma’lumotli yuridik kadrlarga bo‘lgan extiyoj yuqori. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib respublika bo‘yicha yuridik kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Mana shu jihatlarni inobatga olgan holda, texnikumlarda TDYU bilan integratsiyalashgan ta’lim dasturlari asosida o‘quv jarayonlari tashkil etilgan bo‘lib, ular uchun yangi darsliklar yaratish, ta’lim jarayonidagi innovatsion texnologiyalarini samarali qo‘llash maqsadida, “texnikum – universitet” aloqa tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda bugungi kunda yoshlarning ta’lim olishida barcha imkoniyatlar yeshigi keng ochib berilmoqda, yuqoridagi farmon va qarorlarda belgilab berilgan vazifalar O‘zbekistonda yuridik ta’lim va fanni yangi sifat bosqichiga olib chiqishi shubhasiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-sون “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-maydagi PF-80-son “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 705-tonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida” gi 17-tonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 359-tonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2019-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining yuridik texnikumlari o‘quvchilari tomonidan tanishtiruv va malakaviy amaliyotni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 3116-tonli buyrug‘i.
7. Jalilov, N. (2024). PROFESSIONAL YURIDIK TA’LIM-INNOVATION TA’LIM TIZIMINING YANGI BOSQICHI. Modern Science and Research, 3(8), 4-7.
8. Mamadiyev, A. (2024). TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI AKADEMİK LITSEYLAR O ‘QUVCHILARIGA STIPENDIYA VA GRANTLAR AJRATILADI. Modern Science and Research, 3(8), 47-50.